

MAQSUD SHAYXZODA ASARLARIDA XALQ OG'ZAKI IJODI AN'ANALARNING TA'SIRI

To'xtayeva Lola Rustam qizi

*BuxDU Adabiyotshunoslik: o'zbek adabiyoti
mutaxassisligi 2-bosqich magistri*

Annotatsiya: *Maqsud Shayxzoda o'zbek adabiyotining taniqli vakillaridan biri bo'lib, 20-asr o'zbek she'riyatida o'ziga xos o'ringa ega ijodkorlardan biri sanaladi. Uning ijodida xalq og'zaki ijodi an'analari bilan uyg'unlik yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu maqolada ijodkorning asarlarida yetakchilik qiladigan afsona, rivoyat hamda xalq og'zaki ijodining mahsuli bo'lgan parchalarni misollar asosida izohlashga harakat qilamiz.*

Kalit so'zlar: *xalq og'zaki ijodi, xalqona til, uslub, urf-odat, syujet, obraz, janr, iste'dod, motiv, vatanparvarlik, shoir.*

Maqsud Shayxzoda ijodi rang-barang va ko'p qirrali bo'lib, u she'riyatning turli janrlarida qalam tebratgan. Uning asarlari, xususan, she'r va dostonlari xalqning turmush tarzi, orzu-intilishlari va ma'naviy dunyosini aks ettiradi. Shoirning xalq og'zaki ijodiga bo'lgan munosabati uning asarlarini yaratishda asosiy omillardan biri bo'lgan.

Maqsud Shayxzoda ijod namunalari oddiy, xalqona til va uslubdan foydalangan. Ijodi davomida xalqqa tushunarli, ommabop bo'lishga intilgan. Maqsud Shayxzoda o'z ijodida milliy ruhni, vatanparvarlik tuyg'ularini ifodalagan. U xalqning tarixini, urf-odatlarini, qadriyatlarini she'rlarida aks ettirgan. Yozuvchining ijodida folklorizm yaqqol ko'zga tashlanadi, ya'ni (qo'shiqlar, ertaklar, dostonlar)dan olingan motivlar, obrazlar, syujetlar, janrlar va uslublardan keng foydalangan. U folklor asarlarini o'ziga xos uslubda, yangicha badiiy talqinlarda yaratgan. Jumladan, Shayxzoda ko'p qirrali iste'dod sohibi bo'lgan.

U she'rlar va dostonlar bilan birga, juda yuksak badiiy quvvatga ega bo'lgan dramalar ham yaratadi. Shayxzoda umrining so'ngida yozishga kirishgan, lekin tugatib ulgurmagani "Beruniy" dramasi hisobga olmaganda ham, uning "Jaloliddin Manguberdi" va "Mirzo Ulug'bek" dramalari allaqachon xalqimizning badiiy mulkiga aylanib qoldi. Yozuvchi ikkinchi jahon urushi yillarida yozgan "Jaloliddin Manguberdi" (1944) tragediyasida o'z yurtining ozodligi va mustaqilligi uchun mo'g'ul istilochilariga qarshi kurashgan so'nggi Xorazm shohining jangovar jasoratini tarixan aniq va haqqoniy tasvirlagan.

Oybek bilan G'afur G'ulom o'sha vaqtda asarga yuqori baho berishib: "Tarixiy jarayonning haqiqiy mazmunini, uning ichki ma'nosini ochib bergan" deyishgan edi.²⁰1946-yilgacha "Jaloliddin Manguberdi" dramasi ayrim parchalar "Armug'on" to'plamida bosilgan edi. Shundan keyin 43 yil davomida asar tilga olinmadi va dunyo yuzini ko'rmadi. Asar sahnadan olingandan keyin ko'p o'tmay Shayxzoda qamaladi. Bu

²⁰ <https://cyberleninka.ru/article/n/maqsud-shayxzoda-she-riyatida-ozarbayjon-va-o-zbekiston-madhi/viewer>

asarga o'tmish ideallashtirilgan degan siyosiy ayb qo'yiladi. Musodara etilgan buyumlar ichida dramaning qo'lyozmasi ham bor edi. Muallif oqlanib, qaytib kelganidan keyin muayyan tashkilotlar "yo'qoldi" degan bahonalar bilan qo'lyozmani qaytarib bermadilar. Shayxzoda uni bir necha yil qidirishga majbur bo'ldi va nihoyat, teatrning sobiq insonlaridan uning bir nusxasini topishga muvaffaq bo'ladi. Lekin shunda ham asarning matni e'lon qilinmay qolaveradi. "Jaloliddin Manguberdi" dramasi to'liq matni birinchi marta Bokuda ozarbayjon tilida Shayxzodaning ikki jildlik saylanmasida bosilib chiqarildi. Faqatgina 1988-yildagina "Jaloliddin Manguberdi" asari birinchi marta o'zbek tilida yozuvchining "Boqiy dunyo" degan kitobida to'la bosilib chiqarildi.²¹ Ushbu dramada Jaloliddin Manguberdi obrazi tilidan ham bir qancha o'rinlarda xalq og'zaki ijodi namunalarini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, dostonlarda qahramonlar, odatda, hiylaga uchrash, sotqinlik, nayrang kabi holatlar ko'plab uchraydi va aynan ushbu dramada ham Temur Malikning hiylaga uchrash holati Jaloliddin Manguberdi tilidan namoyon etilgan:

Nima qilar unda u shayton, sotqin?
U yo murdor bo'lsin va yoki tutqin!
Oh, Temur Malik ko'p ulug' sardor
Va lekin dil sodda, hiylada nochor.
Mulozim!²²

Bundan tashqari xalq orasida biror mushkul vaziyatda yoxud uzoq safar, jangga o'tlangan qahramonlarga "Xudo yor bo'lsin, pirlar madadkor bo'lsin" jumlasini aytish odati bor va bu jumalarni "Alpomish" dostonida ham uchratamiz. Bu dramada ham aynan, Jaloliddin Manguberdiga onasi nutqidan "Xudo yor bo'lsin"²³ birikmasi uning dushmanga qarshi jangga o'tlangan paytida qo'llanilgan, bu esa yozuvchining xalq og'zaki ijodiga yondashib, bu dramani yozilganligining yorqin dalilidir. Dostonlarda ko'rishimiz mumkinki, tush motivi ko'plab va doimiy holatlarda uchraydi. Bu tush orqali qahramonlar bir-birlari bilan zimdan ko'rishishadi, yoxud tushda hayotining keyingi bosqichlari namoyon bo'ladi va ko'p hollarda o'zining sevgan yori bilan ham tushda ko'rishish holatlari bor. Bundan tashqari ulug' ustozlar, chiltonlar, pirlar va ulug' shayxlarning ham qahramonlar tushiga kirib yordam berish tasvirlari uchraydi. Bu ham xalq og'zaki ijodining yana bir ko'rinishi bo'lib unda voqealar yana-da qizg'in tus olishini ta'minlashga harakat qiladi. "Jaloliddin Manguberdi" dramasi ham Jaloliddinning tushida Temur Malik hamda kelajakda ro'y berishi kutilayotgan jang manzarasi ko'rinadi. Bular ikkisi ham haqiqatdan oz fursatdan so'ng ro'y beradi va jangda tushdagi kabi Temur Malik va Jaloliddin Manguberdi birga dushmanga qarshi chiqishadi.

Yana mening uyqumga iblis qildi rashk,
Go'yo janjal... Balki bu sipoh qilgan mashq!
Haftalar mobaynida mizg'idim biroz,
Tushlar ko'rdim qayg'uli, g'amgin jongudoz.
"O'lim mangu uyqudir", – deydi shoirlar,

²¹ [tps://cyberleninka.ru/article/n/maqsuhtd-shayxzoda-she-riyatida-ozarbayjon-va-o-zbekiston-madhi/viewer](https://cyberleninka.ru/article/n/maqsuhtd-shayxzoda-she-riyatida-ozarbayjon-va-o-zbekiston-madhi/viewer)

²² 8-sinf adabiyot darsligi, Toshkent - 2019. 149-bet

²³ 8-sinf adabiyot darsligi, Toshkent - 2019. 157-bet

Achchiq xato: o'lmasdan buni kim bilar?
Tush olami bir bog'dur – xayollar, qushlar,
Ammo, afsus, go'rlarga kirmaydi tushlar!
Ko'rdim chaman... Urganchda... Amudaryoda –
Arg'uvoniy kosada xushbo'y bir boda,
Menga tutib qadim do'st der edi kulib:
Ko'p sog'indim, shahzoda, sendan ayrilib!
Yana bir bor ichaylik, suvdan kechaylik...
Mayli, ichdim, tanidim. U–Temur Malik!²⁴

Dramada Chol obrazi tilidan Xudodan yordam so'rash va payg'ambar, nabiyan yordam kutish tasviri uchraydi. Bilamizki, har bir xalq og'zaki ijodi namunalarida mushkul zamonlarda Xudo va uning elchilaridan yordam so'rash tasvirlari ko'plab uchraydi. Jumladan, "Alpomish", "Kuntug'mish" kabi dostonlarda. Chunki faqatgina Yaratgan ularga yordam berishiga ishonishgan va bu ishonch motivining shakllanishiga zamin yaratadi. Quyidagi parchada ham Chol nutqida shunday motivni ko'rishimiz mumkin:

Ular qonga xumori, tashnadirlar bil, bolam.
Na falakdan javob bor, na duodan savob bor,
Ko'p mahkam kulfatlangan ilohiy baland darbor!
Xafa bo'ldim olamning Xudosidan, rabbidan,
Ko'p istidod so'radim payg'ambardan, nabiyan...
Dunyoda nafas olish o'zi serxatar ekan.²⁵

Xalq og'zaki ijodining yorqin namunalaridan biri "Kuntug'mish" dostonida "uzuk" obrazi uchraydi va u yerda uzuk Xolbeka tomonidan Kuntug'mishga tushida bir - birlarini ko'rgandan so'ng, topishishlari uchun belgi sifatida sandiqqa solib daryoga oqizib yuboriladi. Bu yerda uzuk obrazi ezgulik uchun xizmat qilgan bo'lsa ushbu dramada ham uzuk obrazi bor, ammo salbiy ma'no kasb etgan. Xalq orasida uzukni ezgulik, himoya, diydor motivlari bilan tasvirlashgan. Ammo Jaloliddin Manguberdi quyidagi nutqidan bu obrazning salbiy jihati qoralanadi:

Eringga shohlikni so'z bergan Chingiz,
Bu ham xo'jasiga ishlagan shaksiz.
Yurtiga sarlashkar bo'lishdan ko'ra –
Shohlik nomi bilan mo'g'ulga to'ra...
"G'alati bir uzuk – o'zi ham tumor".
Emish: "O'limlarga qarshi madadkor",
Endi shu uzukda ochildi tilsim,
Oh, yomon dahshatdir g'azabim, hirsim!
Uning bir boshiga yuz marta o'lim!..
Ering bir sotqindur, bechora singlim!²⁶

²⁴ 8-sinf adabiyot darsligi, Toshkent – 2019. 153-bet

²⁵ 8-sinf adabiyot darsligi, Toshkent – 2019. 136-bet

²⁶ 8-sinf adabiyot darsligi, Toshkent – 2019. 146-bet

Xalq og'zaki elementlaridan foydalanish shoirga o'z g'oyalarini, his-tuyg'ularini samaraliroq yetkazishga, asarlariga chuqurroq ma'no va mazmun berishga imkon berdi. Xalq og'zaki ijodining badiiy vositalaridan foydalanish shoirning tilini sodda va tushunarli qildi, asarlarini xalqona ruh bilan boyitdi.

Maqsud Shayxzodaning ijodi o'zbek adabiyotining oltin fondiga munosib hissa qo'shgan va xalq og'zaki ijodi an'analarini o'z asarlarida muvaffaqiyatli aks ettirgan shoir sifatida adabiyot tarixida o'z o'rnini egallagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Каримов Наим. Мақсуд Шайхзода. Тошкент: Фан, 2009.
2. Салимов Теша. "Навоий ижоди ҳақида илк таҳлиллар". Тошкент, 1941.
3. Шайхзода М. "Генирал шоир". Тошкент: Ўқитувчилар нашриёти, 1941.
4. Maqsud Shayxzodaning adabiy merosi va zamonaviylik // Xalqaro ilmiy - amaliy anjuman maqolalari to'plami. - Toshkent, 2020. - 173 b.
5. Зокиров М. Мақсуд Шайхзода. - Тошкент, 1969. - Б.139.
6. Абдусаматов Ҳ. Драматургия ва ҳаёт. - Тошкент: Ўзбекистон, 1974.